

SURUNKALI TONZILLITNING YOSHGA BOG'LIQ HOLDA KECHISHI

Xamroeva Umida Raximovna

Buxoro Davlat Tibbiyot Instituti,

Otorinolaringolog.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17051882>

Tadqiqotning maqsadi: Surunkali tonzillitning yoshga bog'liq holda kechishini va xavf omillarini o'rganish.

Tadqiqot materiallari va tekshirish usullari.

Tadqiqot izlanishlarimiz BVKTBK LOR-bo'limida va Buxoro shaxar 3 OP da o'tkazildi.

Tekshirishda jami 70 ta 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar tashkil etdi, shulardan 50 (71%) ta bola - surunkali tonzillit tashxisi bilan davolangan bemor bolalar - asosiy guruxni va taqqoslovchi guruxni 20 (29%) ta sog'lom bola tashkil etdi.

Barcha bolalarda umumklinik tekshiruv: har bir bemor bolaning shikoyatlari, bolalar va ularning ota-onasidan olingan anamnestik ma'lumotlar va poliklinikadagi 112/u bolaning rivojlanish tarixidan – tashxisi aniqlangan kasalliklar varaqasidan ko'chirma asosida o'tkazildi.

Tadqiqot natijalari o'g'il va qiz bolalar orasida kasallikning uchrashini alohida o'rganish ular orasidagi tafovut ishonarsizligini ko'rsatdi, ya'ni surunkali tonzillit o'g'il bolalar orasida 2,9% va qiz bolalarda esa 3,3% uchrashi topildi ($R>0,05$).

Bemorlar orasida surunkali tonzillit shakllaridan eng ko'p holda surunkali tonzillit oddiy shakli 39 ta (78%), undan so'ng ancha orqada qolgan holda surunkali tonzillit toksikoallergik shakli 9 ta (18%) uchradi. 2(4%) bemorda radikal operatsiyadan keyingi holat aniqlandi.

Surunkali tonzillit bilan kasallangan bemor bolalarni davolanish shakllari tahlili asosida ma'lum bo'ldiki, bemorlar eng ko'p uy sharoitida 27 ta (54%), keyin poliklinikalarda 21 ta (42%) va faqat 2 ta (4 %) hollardagina shifoxonalarda davolanishni amalga oshirganlar.

Xulosa. Bolalar yoshi kattalashgan sari surunkali tonzillitning tarqalishini ko'payish tendensiyasi kuzatildi. 3-5 yoshdagi bolalar orasida surunkali tonzillit 5-6 yoshli bolalarga nisbatan 1,7 marta, 6-7 yoshlilarga qaraganda 1,2 marta, bolalar orasida uchrashining umumiy ko'rsatkichiga nisbatan esa 1,4 marta ko'p uchrashi ko'rildi.

Surunkali tonzillitni o'g'il va qiz bolalar orasida alohida yoshga bog'liq holda tarqalishiining qiyosiy o'rganish yuqoridagi tendensiyaning saqlanib qolishini ko'rsatdi. Ushbu dalil asosida bolalar orasida surunkali tonzillit kasalligi uchun yosh alohida ahamiyat kasb etuvchi omil sifatida baholash mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Kumar V., Abbas A.K., Aster J.C. *Robbins and Cotran Pathologic Basis of Disease*. 10th ed. Philadelphia: Elsevier; 2021.
2. Brook I. The role of anaerobic bacteria in tonsillitis. *International Journal of Pediatric Otorhinolaryngology*. 2005;69(1):9–19.
3. Ardehali M.M., Emami A., Rezaei N. Autoimmunity in chronic tonsillitis. *American Journal of Otolaryngology*. 2010;31(6):401–406.

Sentabr, 2025-Yil

4. Çolak A., et al. Autoimmune mechanisms in recurrent tonsillitis: a clinical and immunological study. *European Archives of Oto-Rhino-Laryngology*. 2016;273(9):2731–2737.
5. Shulman S.T., Bisno A.L. Clinical practice guidelines for the diagnosis and management of group A streptococcal pharyngitis. *Clinical Infectious Diseases*. 2012;55(10):1279–1282.
6. Чернушенко Е.Ф., Воложин А.И. *Клиническая иммунология и аллергология*. – Москва: ГЭОТАР-Медиа, 2019.
7. Турғунов Б., Содиков У. Surunkali tonsillitning immunologik xususiyatlari. *Tibbiyotda yangi kun*. 2021;3(35):112–117.



MODERN SCIENCE
& RESEARCH